

**MASOFADAN TURIB O’QITISHDA MODUL ELEKTRON
PLATFORMASINING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI**

Yusupov M.I. Shayqulov H.Sh., Mamarasulova N.I.,

*Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya
kafedrasi assistentlari Samarqand Davlat tibbiyot
universiteti. O’zbekiston.*

Annotasiya: ushbu keltirilgan ishda modul elektron platformasining ta’lim tizimidagi samaradorligi yoritilgan bo’lib, o’quvchilarning fanni va bilimni o’zlashtirishidagi asosiy yondashuvlar, o’ziga xos xususiyatlar, konstruktiv talab va qoidalarni o’z ichiga olgan. Bu esa talabalarga fanni oson o’zlashtirishi, yuqori texnologiyalardan keng qamrovda foydalanish imkonini beribgina qolmasdan, o’qituvchilar va talabalar uchun o’quv jarayonini oson, tushunarli va qulay qilib, ta’limning barcha asosiy bosqichlarini qamrab olishiga yordam beradi.

Kalit so’zlar: moodle, elektron tizim, o’quv elementi, yuqori texnologiya, internet.

Bugungi globallashtirilgan va raqamli elektron tizimlar keng yoyilgan bir paytda rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida o’qitishning turli elektron tizimlaridan foydalanishmoqda. Bunga sabab elektron o’qitish texnologiyasidan foydalanish o’quv jarayonining samaradorligini yaxshilashi va ta’lim olish jarayonining jahon andozalariga to’liq javob bera olishi, boshqa o’qitish tizimlaridan farqli ularoq, maqsad va mazmunining aniqligi, shakllari va usullari, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi o’rtasidagi munosabat mutanosibligining mukammal darajada ekanligidadir. Shunday tizimlardan biri "moodle" elektron o’qitish tizimidir. Moodle so’zi lotincha "moodulus" so’zidan olingan bo’lib, me’yor, ulchov degan ma’noni anglatadi. Bu tizim -ma’lum bir tartibga ega, maqsadga yo’naltirilgan va

mantiqiy tuzilgan ta'lim berish dasturidir. Bunda ma'ruza va amaliy kurslar, ta'lim va texnologik xaritalar, adabiyotlar, nazorat bilimlari va hisobot shakllarini mantiqiy va didaktik jihatlarini o'z ichiga olgan alohida bo'limlardan tashkil topgan. Modul tizimida davlat ta'lim standarti va o'quv muassasasi talablariga mos keluvchi aniq maqsad va professional - amaliy muammolarga yechim topilgan.

Moodle dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv ko'llanma sifatida talabaga o'quv moduliga kiritilgan o'quv materialini blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilishi natijasida ta'lim samaradorligini oshiradi. Moodle qo'llanmasi tarkibida qo'yidagi konstruktiv talab va qoidalar o'z aksini topgan:

- moodle o'qish natijasida sifat xususiyatlariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan kompleksli maksad,
- ta'lim standartida berilgan predmet "o'quv elementlarida" maqsadning oydinlashishi,
- moodleni o'rganishning texnologik usullari buyicha dastur va tavsiyalar.
- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezon buyicha maqsadlarning oydinlashishi.
- o'z-o'zini nazoratni tashkil etish buyicha etalonlar.

Moodle platformasidagi modul o'qitish tizimi quyidagi subektiv bo'limlardan iborat va bu bo'limlarda talabalar bilishi lozim bo'lgan ta'lim vositalari:

1. Bo'limni o'rganishdan oldin o'quvchilar bilan materialni o'rganishda istiqbol rejasi muhokama qilinadi, mavzular ketma-ketligi, har bir mavzu buyicha darslar soni, dars shakllari aniqlanadi.

Har bir o'quvchi individual ish uchun modul qo'llanmasi yoki modulga kirgan didaktik materiallar paketini oladi va bular qo'yidagilar:

- o'quv elementlarini (ta'lim standartining mazmun birliklari) - o'qish dasturi;
- blok mazmuni konspekti;
- joriy va o'z-o'zini nazorat qilish uchun daraja mezonlarini o'z ichiga olgan "sinov varag'i" bilan "nazorat ishi",
- yakuniy nazorat ishi namuna yoki sinov uchun savol va topshiriqlar;

- masala yechimi va javoblari bo'lgan o'z-o'zini nazorat qilish bo'limi;

Modul qo'llanmasidan o'quvchi uyida yoki auditoriyada o'zi mustaqil foydalanadi.

2. Bo'limda mazmunini o'rganish asosiy konspektdan hamda ma'ruza matnidan foydalaniladi, bunda materialni umumiy tarkibi, asosiy tushuncha, mantiqiy bog'lanishlar, qiyin joylar tushuntiriladi. O'quvchilar materialni mustaqil ravishda batafsil o'rganadilar. Qiyinchiliklar tug'ilganda ular o'qituvchi yordami bilan muammoga yechim topadilar.

Z. **Nazorat ishi bo'limi.** Bunda mashg'ulot o'zaro nazorat va o'qitish bilan boyitiladi. Baho faqat modulni to'liq o'rganilganidan so'ng yakuniy qilib chiqariladi. Baho nazorat ishi bo'yicha sinov mezonlari asosida chikariladi. Bahoga rozi bo'lmagan o'quvchiga qayta topshirish imkoniyati beriladi. Bunda bahoni tushishiga sabab bo'lgan qism kengaytirilgan holda topshiriladi. Bu texnologiyani qo'llash natijasida talabalarning o'qishga qiziqish va faolligi oshadi.

Modul ta'lim tizimining an'anaviy ta'lim tizimidan kuyidagi afzallik va ustunliklari mavjud:

a) Ta'limning modul tizimi dasturi talablari asosida olib boriladi.

b) Vaqtdan samarali foydalaniladi.

s) Talabalar tomonidan o'quv materialli yuqori darajada o'zlashtirilishiga, o'z ustida mustaqil ishlashiga imkon yaratiladi.

d) Talabalar o'rtasida do'stona muloqot, o'zaro yordam, hamkorlik vujudga keladi, nutqi va muloqot madaniyati rivojlantiriladi.

Har bir talaba o'z qiziqishi, iqtidoriga asoslanib, bilimni oshirish maqsadida mustaqil va ijodiy ishlab, yangi bilimlarni o'zlashtiradi. O'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat va o'qituvchi nazorati amalga oshiriladi.

ye) Pedagogik munosabatlar o'zaro hamkorlikka asoslanadi.

Xusola. Modul tizimining bosqichma-bosqich bo'limlarga bo'linganligi ta'lim beruvchi uchun o'rganilayotgan muammoni ta'lim jarayonida tatbiq qilinishining qo'layligi, boshqa ta'lim tizimlaridan farqli ravishda ta'lim tizimining elementi

sifatida o'qituvchining rolini o'zgartirishi, talaba uchun o'rganishi lozim bo'lgan mavzu mazmuni, vazifalari, shakllari, usullari va ta'lim faoliyati vositalarini tanlashga keng imkoniyatlar yaratishi, o'qituvchi "qaytar aloqa" usuli, yordamida talabalarning mashg'ulotga tayyorgarlik jarayonini aniqlay olishi, o'qituvchining o'z ustida tinimsiz ishlashi hamda har bir talabani o'quv jarayonida shaxsiy ishtirokini taminlaydi.

Bundan tashqari modul o'qitish tizimi o'ziga xos xususiyatlari fan muammolarini talabalarga oson o'zlashtirishi, bunda yuqori texnologiyalardan keng qamrovda foydalanish imkonini beribgina qolmasdan, o'qituvchilar va talabalar uchun o'quv jarayonini oson, tushunarli va qulay qilib, ta'limning barcha asosiy bosqichlarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zR O va O'MTV Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni joriy etish to'g'risidagi № 820 - buyrug'i - Toshkent sh. 29 sentyabr 2018 yil .
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- Toshkent, 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 2020 yil. 23-sentyabr.
4. Одилова Г.М., Жамалова Ф.А., Мамарасулова Н.И./«Методы оценки знаний студентов по модулю микробиология, вирусология и иммунология» / роль инновационных технологий в медицинском образовательном процессе фундаментальных дисциплин и клинической медицины материалы международной научно-практической конференции (Самарканд, 6 мая 2021 г.) под ред. РИЗАЕВА Ж.А.
5. Попова Н.М., Сабитова Н.Г./«Реализация научно-исследовательской деятельности студентов в дистанционном формате»/ роль инновационных технологий в медицинском образовательном процессе фундаментальных дисциплин и клинической медицины материалы международной научно-практической конференции (Самарканд, 6 мая 2021 г.) под ред. РИЗАЕВА Ж.А.